

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Statistika agentligining
2023-yil 24-oktabrdagi
43-sonli buyrug'iga
ILOVA

**Mehnat unumdorligini hisoblash bo'yicha
Uslubiy nizom**

Mehnat unumdorligini hisoblash bo'yicha Uslubiy nizom (keyingi o'rinlarda – Uslubiy nizom) “Milliy hisoblar tizimi – 2008” (keyingi o'rinlarda – MHT-2008) yo'riqnomasiga muvofiq, makroiqtisodiy hisob-kitoblarni amalga oshirishda tahliliy ishlarni takomillashtirish maqsadida tayyorlangan.

Ushbu Uslubiy nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi va hududlar, shuningdek, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mehnat unumdorligi hamda mehnat unumdorligi indekslarini hisoblash tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushunchalar va ta'riflar qo'llanilgan:

yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ), ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) va ishlab chiqarish jarayonida to'laligicha iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste'mol) o'rtasidagi farq orqali aniqlanadi;

yalpi ichki mahsulot (YaIM) iqtisodiy rezident-birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalovchi va ushbu birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati orqali o'lchanadigan MHTning asosiy ko'rsatkichlaridan biridir;

yalpi hududiy mahsulot (YaHM) – hududning rivojlanishini umumlashtiruvchi ko'rsatkich. YaHM iqtisodiy mohiyatiga ko'ra YaIMga teng ko'rsatkich hisoblanadi va u o'zida muayyan hududning rezidentlari bo'lgan iqtisodiy birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymatini ifodalaydi;

iqtisodiyotda band bo'lgan aholi – yollanib ishlayotganlar, shu jumladan, ishlarni to'liq bo'lmagan ish vaqti mobaynida yoki uyda ish haqi olib bajarayotgan, yohud kasanachilik bilan shug'ullanayotgan, shuningdek, haq to'lanadigan boshqa ishga, shu jumladan, vaqtinchalik ishga ega bo'lgan fuqarolar;

kasallik, ta'til, qayta tayyorgarlik, malaka oshirish, ishlab chiqarishning to'xtab turishi tufayli, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq vaqtinchalik ishda bo'lmagan xodim uchun ish joyi saqlanib qoladigan boshqa holatlarda ish joyida vaqtinchalik bo'lmagan fuqarolar; haq to'lanadigan lavozimga saylangan yoki tayinlangan fuqarolar; o'zini mustaqil ravishda ish bilan ta'minlovchi fuqarolar, jumladan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar, hunarmandlar, dehqon xo'jaliklari, ishlab chiqarish kooperativlari a'zolari, fermerlar va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchilar; O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida, jumladan, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati qo'shinlarida xizmatni, shuningdek, muqobil xizmatni o'tayotgan fuqarolar va boshqalar; nodavlat notijorat tashkilotlarida, shu jumladan, o'z faoliyatini qonunchilikka muvofiq amalga oshirayotgan diniy tashkilotlarda ishlovchilar;

mehnat unumdorligi indeksi ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichi bo'lib, u mehnat unumdorligi o'zgarishini tavsiflaydi;

YaIM (YaHM, YaQQ) fizik hajm indeksi doimiy narxlarda, ya'ni o'tgan yilning mos davri narxlarida hisoblangan hisobot davri YaIM (YaHM, YaQQ)ini (real YaIM (YaHM, YaQQ)), joriy narxlardagi o'tgan yilning mos davri YaIM (YaHM, YaQQ)iga nisbati orqali hisoblanadi;

mehnat unumdorligi – foydalanilgan mehnat resurslari birligi uchun to'g'ri keladigan ishlab chiqarish yoki yalpi qo'shilgan qiymatni tavsiflaydigan ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichi.

2-bob. Mehnat unumdorligini hisoblashning asosiy axborot manbalari va usullari

2. Mehnat unumdorligini hisoblash uchun axborot manbalari bo'lib, Statistika dasturiga muvofiq shakllantirilgan YaIM (YaHM, YaQQ) va band aholi soni bo'yicha rasmiy statistika ma'lumotlari hisoblanadi.

3. Mehnat unumdorligi YaIM, YaHM ni mos ravishda respublika, hududlar bo'yicha iqtisodiyotda band bo'lgan aholi soniga nisbati orqali hisoblanadi.

4. Respublika bo'yicha mehnat unumdorligi quyidagi formula, ya'ni joriy narxlardagi YaIMni respublika iqtisodiyotida band bo'lgan aholi soniga nisbati orqali hisoblanadi:

$$MU_{YaIM} = \frac{YaIM}{BA}$$

bu yerda,

MU_{YaIM} – respublika bo'yicha mehnat unumdorligi (ming so'm / kishi);

$YaIM$ – joriy narxlardagi $YaIM$ (mln. so'm);

BA – respublika iqtisodiyotida band bo'lgan aholi soni (ming kishi).

5. Hududlar bo'yicha mehnat unumdorligi quyidagi formula, ya'ni joriy narxlardagi $YaHM$ ni hududlar iqtisodiyotida band bo'lgan aholi soniga nisbati orqali hisoblanadi:

$$MU_{YaXM} = \frac{YaXM}{BA}$$

bu yerda,

MU_{YaXM} – hududlar bo'yicha mehnat unumdorligi (ming so'm / kishi);

$YaXM$ – joriy narxlardagi $YaHM$ (mln. so'm);

BA – hududlar iqtisodiyotida band bo'lgan aholi soni (ming kishi).

1-§. Mehnat unumdorligi indeksini hisoblash

6. Respublika va hududlar, shuningdek, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mehnat unumdorligi dinamikasini o'rganish maqsadida mehnat unumdorligi indeksi hisoblanadi. Mehnat unumdorligi indeksini hisoblash uchun respublika, hududlar

va tegishli iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha iqtisodiyotda band bo'lgan aholi soni indeksi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$I_{BA} = \frac{BA_t}{BA_{(t-1)}}$$

bu yerda,

I_{BA} – hisobot davrida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiyotda band bo'lgan aholi soni indeksi.

BA_t – hisobot davrida band bo'lgan aholi soni (ming kishi);

$BA_{(t-1)}$ – o'tgan yilning shu davrida band bo'lgan aholi soni (ming kishi).

7. Respublika bo'yicha mehnat unumdorligi indeksi quyidagi formula, ya'ni $YaIM$ fizik hajm indeksini respublika iqtisodiyotida band bo'lgan aholi soni indeksiga nisbati orqali hisoblanadi:

$$I_{MU YaIM} = \frac{I_{YaIM}}{I_{BA YaIM}}$$

bu yerda,

$I_{MU YaIM}$ – respublika bo'yicha mehnat unumdorligi indeksi (%);

I_{YaIM} – $YaIM$ fizik hajm indeksi (%);

$I_{BA YaIM}$ – respublika iqtisodiyotida band bo'lgan aholi soni indeksi.

8. Hududlar bo'yicha mehnat unumdorligi indeksi quyidagi formula, ya'ni YaHM fizik hajm indeksini hududlar iqtisodiyotida band bo'lgan aholi soni indeksiga nisbati orqali hisoblanadi:

$$I_{MU\ YaXM} = \frac{I_{YaXM}}{I_{BA\ YaXM}}$$

bu yerda,

$I_{MU\ YaXM}$ – hududlar bo'yicha mehnat unumdorligi indeksi (%);

I_{YaXM} – YaXM fizik hajm indeksi (%);

$I_{BA\ YaXM}$ – hududlar iqtisodiyotida band bo'lgan aholi soni indeksi.

3-bob. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida mehnat unumdorligini hisoblashning usullari

9. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi – bu sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymatidir.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

10. Yalpi mahsulot butun iqtisodiyot bo'yicha va iqtisodiy faoliyat turlari kesimida hisoblanadi hamda barcha yuridik shaxslar (ishchilar sonidan qati nazar), yakka tartibdagi tadbirkorlar va uy xo'jaliklari tomonidan hisobot davrida iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan (yetishtirilgan) mahsulotlar va xizmatlarning umumiy qiymatini ifodalaydi.

11. Qishloq xo'jaligi faoliyatning barcha turlari bo'yicha mahsulot yetishtirish va xizmat ko'rsatish – mehnat xarajatlarini baholashning 2 ta ko'rsatkichi bo'yicha amalga oshiriladi:

- xodimlar soni;
- ishlangan vaqt.

12. Yil davomida ishlangan vaqt O'zbekiston Respublikasi, jumladan viloyatlar kesimida qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirish va xizmat ko'rsatish uchun amalda ishlangan xodimlar sonini tavsiflaydi.

13. Mehnat unumdorligi sifatida bir xodimga to'g'ri keladigan yalpi ishlab chiqarish qiymati qo'llaniladi.

14. Qishloq xo'jaligi sohasida mehnat unumdorligi yalpi qo'shilgan qiymatning sohada band bo'lgan aholi soniga nisbati sifatida hisoblanadi.

15. Qishloq xo'jaligi sohasida mehnat unumdorligi har yili O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari klassifikatorining (keyingi o'rinlarda- IFUT-2) A seksiya bo'yicha hisobot davridan keyingi yilning 1- oktabrigacha hisoblanadi.

16. Respublika bo'yicha qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligi ko'rsatkichi quyidagi formula, ya'ni joriy narxlardagi yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmini sohada band bo'lgan aholi soniga nisbati orqali hisoblanadi:

$$MU_{Res} = \frac{YaQQ}{BA}$$

bu yerda,

MU_{Res} – respublika bo'yicha qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligi (ming so'm / kishi);

$YaQQ$ – joriy narxlardagi A seksiya bo'yicha mahsulot (xizmat)lar YaQQ hajmi (million so'm);

VA – A seksiya bo'yicha band bo'lgan aholi soni (ming kishi).

Masalan, 2022-yilda respublika bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik sohasida band bo'lgan 3 438,7 ming. kishi tomonidan joriy narxlarda 208 452,9 mlrd. so'mlik qishloq xo'jalik mahsulot (xizmat)lari ishlab chiqarilgan (YaQQ) bo'lib, tarmoqda band bo'lgan bir nafar aholi tomonidan yaratilgan mahsulot (xizmat)lar hajmini topish uchun jami hajmni tarmoqda band bo'lganlar soniga bo'lamiz.

$$MU_{Res} = 208\,452,9 \text{ mlrd. so'm} / 3\,438,7 \text{ ming. kishi} = 60,6 \text{ mln. so'm.}$$

Bunda, tarmoqda band bo'lgan bir nafar aholi tomonidan yaratilgan mahsulot (xizmat)lar hajmi 60,6 mln. so'mni tashkil qiladi.

17. Hududlar bo'yicha qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligi ko'rsatkichi yuqoridagi formula, ya'ni joriy narxlardagi yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmini sohada band bo'lgan xodimlar soniga nisbati orqali hisoblanadi.

2-§. Mehnat unumdorligi indeksini hisoblash

18. Respublika va hududlar bo'yicha qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligi holatini o'rganish maqsadida mehnat unumdorligi indeksi hisoblanadi.

Mehnati unumdorligi indeksini hisoblash uchun respublika va hududlar kesimida IFUT-2, A seksiya bo'yicha iqtisodiyotda band bo'lgan aholi soni indeksi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$I_{BA} = \frac{BA_t}{BA_{t-1}}$$

bu yerda,

I_{BA} – hisobot davrida o'tgan yilning shu davriga nisbatan A seksiya bo'yicha iqtisodiyotda band bo'lgan aholi soni indeksi (%);

BA_t – A seksiya bo'yicha hisobot davrida band bo'lgan aholi soni (ming kishi);

BA_{t-1} – A seksiya bo'yicha o'tgan yilning shu davrida band bo'lgan aholi soni (ming kishi).

Masalan, 2022-yilda respublika bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik sohasida band bo'lgan aholi soni indeksini aniqlash uchun, 2022-yilda ushbu sohada band bo'lganlarni (3 429,6 mln. kishi) 2021 yildagi mos ko'rsatkichga (3 414,7 ming kishi) nisbatini aniqlaymiz.

$$I_{VA} = 3\,438,7 \text{ ming kishi} / 3\,414,7 \text{ ming kishi} * 100 = 100,7 \%$$

Bunda, 2022-yilda tarmoqda band bo'lgan aholi soni 2021-yildagi tarmoqda band bo'lgan aholi soniga nisbatan o'sish sur'ati 100,7 % ni tashkil qiladi.

19. Respublika bo'yicha mehnat unumdorligi indeksi YaQQ hajmi indeksini A seksiyada band bo'lgan aholi soni indeksiga nisbati orqali hisoblanadi:

$$I_{MU\,Res} = \frac{I_{YaQQ}}{I_{BA}}$$

bu yerda,

$I_{MU\,Res}$ – respublika bo'yicha mehnat unumdorligi indeksi (%);

I_{YaQQ} – qishloq xo'jaligi YaQQ hajm indeksi (%);

I_{BA} – respublika bo'yicha A seksiyada band bo'lgan aholi soni indeksi (%).

Masalan, 2022-yilda respublika bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik sohasida mehnat unumdorligi ko'rsatkichini aniqlash uchun 2022-yil qishloq xo'jaligi YaQQ hajm indeksi (o'sish sur'ati)ni (103,6 %) respublika bo'yicha A seksiyada band bo'lgan aholi soni indeksiga bo'lamiz (100,4 %).

$$I_{MU\,Res} = 103,6 \% / 100,7 \% * 100 = 102,9 \%$$

Hisoblash natijalariga ko'ra, 2021-yilga nisbatan 2022-yilda respublika bo'yicha qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligining o'sish sur'ati 102,9 % ni tashkil etgan.

20. Hududlar bo'yicha mehnat unumdorligi indeksi yuqoridagi formula asosida, YaQQ hajm indeksini hududlarda A seksiyada band bo'lgan aholi soni indeksiga nisbati orqali hisoblanadi. Hisob-kitoblar jrayonida respublika ko'rsatkichlari o'rniga hududlar ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.

4-bob. Sanoatda mehnat unumdorligini hisoblashning usullari

21. Sanoatda IFUT-2 B, C, D, E seksiyalari bo'yicha mehnat unumdorligi ko'rsatkichini hisoblash manbai statistika hisobotlari va tanlanma kuzatuvlar natijasida shakllantirilgan rasmiy statistika ma'lumotlari bo'lib, ushbu statistika ko'rsatkichi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$MU_{san} = \frac{YaQQ_{san}}{BA_{san}}$$

Sanoatda mehnat unumdorligi MU_{san} ko'rsatkichi, sanoat ishlab chiqarishining yalpi qo'shilgan qiymati hajmining joriy narxlardagi $YaQQ_{san}$ hajmi sohada bandlar soniga $S_{b\ san}$ nisbati orqali hisoblanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining yalpi qo'shilgan qiymati tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish jarayoni natijasida birlamchi daromadlarning shakllanishini aks ettiradi.

Shuningdek, sanoat faoliyatining ayrim turlari darajasida tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish hamda ularning oraliq iste'moli o'rtasidagi farq sifatida hisoblanadi.

Masalan: 2022-yilda sanoat ishlab chiqarishida band bo'lganlar 1822982 nafarni, sanoatda yalpi qo'shilgan qiymat 2022-yilda 220704,3 mlrd so'mni tashkil qilgan.

2022-yilda sanoatda mehnat unumdorligi ko'rsatkichi quyidagiga teng:

$$MU_{san} = 220704,3 \text{ mlrd so'm} / 1822982 \text{ kishi} = 0,121 \text{ mlrd so'm/kishi.}$$

3-§. Mehnat unumdorligi indeksini hisoblash

22. Sanoatda mehnat unumdorligi indeksi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$I_{MU\ san} = \frac{I_{yaqq\ san}}{I_{BA\ san}} \times 100\%$$

bu yerda:

$I_{MU\ san}$ – sanoatda mehnat unumdorligi indeksi;

$I_{yaqq\ san}$ – sanoatda yalpi qo'shilgan qiymat indeksi;

$I_{BA\ san}$ – sanoatda band bo'lgan aholi indeksi.

Bunda, sanoat ishlab chiqarishining yalpi qo'shilgan qiymati indeksi quyidagicha hisoblanadi:

Masalan, 2022- yilda sanoat ishlab chiqarishida 1822982 kishi, 2021- yilda 1863254 kishi band bo'lgan. Sanoatda yalpi qo'shilgan qiymat 2022- yilda 220 704,3 mlrd. so'm, 2021- yilda 186 978,2 mlrd. so'mni tashkil qilgan.

$$I_{yaqq_{san}} = 220\,704,3 \text{ mlrd. so'm} / 186\,978,2 \text{ mlrd. so'm} \times 100 = 118,0 \%$$

bunda, sanoatda yalpi qo'shilgan qiymat indeksi 118,0 % ga teng.

Sanoatda band bo'lgan aholi soni indeksi:

$$I_{BA_{san}} = 1\,822\,982 \text{ kishi} / 1\,863\,254 \text{ kishi} \times 100 = 97,8 \%$$

2022- yil uchun 2021- yilgacha mehnat unumdorligi indeksi:

$$I_{MU_{san}} = 118,0 / 97,8 \times 100 = 120,6 \%$$

23. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mehnat unumdorligi indeksi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat indeksining tegishli iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha sanoatda band bo'lgan aholi indeksiga nisbati bo'lib, bu quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$I_{MU_{IFTi}} = \frac{I_{Yaqq_{IFTi}}}{I_{BA_{IFTi}}},$$

bu yerda:

$I_{MU_{IFTi}}$ – sanoat faoliyatining i-turi uchun mehnat unumdorligi indeksi;

$I_{Yaqq_{IFTi}}$ – sanoat faoliyatining i-turi uchun yalpi qo'shilgan qiymat indeksi;

$I_{BA_{IFTi}}$ – iqtisodiy faoliyatning i-turi uchun sanoatda band aholi indeksi.

Masalan, IFUT-2 C seksiyasi "Ishlab chiqaradigan sanoat" bo'yicha 2022- yilda sanoat ishlab chiqarishining yalpi qo'shilgan qiymati 170 072,0 mlrd. so'mni v, 2021 yilda esa 144523,4 mlrd.so'mni, sanoat ishlab chiqarishida band bo'lganlar soni 2022-yilda 1 645,3 ming kishini va 2021- yilda esa 1642,4 ming kishini tashkil qilgan.

IFUT-2 S seksiyada 2022-yil 2021-yilga nisbatan yalpi qo'shilgan qiymat indeksi quyidagicha hisoblanadi:

$$I_{YaQQ_{san}} = 170\,072,0 \text{ mlrd. so'm} / 144\,523,4 \text{ mlrd. so'm} \times 100 = 117,7 \%$$

Sanoatda band bo'lgan aholi soni indeksi quyidagicha hisoblanadi:

$$I_{BA_{san}} = 1\,645,3 \text{ ming. kishi} / 1\,642,4 \text{ ming. kishi} \times 100 = 100,2 \%$$

2022- yil 2021- yilga nisbatan IFUT-2 C seksiya bo'yicha mehnat unumdorligi indeksi quyidagicha hisoblanadi:

$$I_{MU_{san}} = 117,7 / 100,2 \times 100 = 117,5 \%$$

24. Hududiy mehnat unumdorligi indeksini hisoblashda, hududning yalpi qo'shilgan qiymat hajmi indeksining hududlarda sanoatda band bo'lganlar soni indeksiga nisbati olinadi.

Bunda, hisob-kitoblarda respublika ko'rsatkichlari o'rniga hududiy ko'rsatkichlar qo'llaniladi.

25. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududiy mehnat unumdorligi sanoat ishlab chiqarishining muayyan turining joriy narxlardagi yalpi qo'shilgan qiymatining sanoatga tegishli iqtisodiy faoliyat turida band bo'lgan ishchilar soniga nisbati sifatida quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$MU_{IFTi} = \frac{YaQQ_{IFTi}}{BA_{IFTi}}$$

bu yerda:

MU_{IFTi} – iqtisodiy faoliyatning i-turi uchun mehnat unumdorligi;

$YaQQ_{IFTi}$ – joriy narxlarda iqtisodiy faoliyatning i -turi uchun yalpi qo'shilgan qiymat;

BA_{IFTi} – iqtisodiy faoliyatning i-turi uchun iqtisodiyotda band bo'lganlar soni.

Masalan, 2022- yilda sanoat ishlab chiqarishining yalpi qo'shilgan qiymati 170 072,0 mlrd. so'm, sanoat ishlab chiqarishida band bo'lganlar soni 1 645,3 ming kishini tashkil qilgan.

Sanoat ishlab chiqarishida hududiy mehnat unumdorligi quyidagicha hisoblanadi:

$$MU_{IFTi} = 170\,071\,955,6 / 1\,645\,300 = 10,3 \text{ mln. so'm /kishi.}$$

5-bob. Qurilish sohasida mehnat unumdorligini hisoblashning usullari

26. Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar qiymati qurilish yalpi ishlab chiqarishidir.

Qurilish yalpi ishlab chiqarishi moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan turar va noturar joy binolari hamda muhandislik inshootlarini yangi obyektlari qurilishi, kapital va joriy ta'mirlash, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish bo'yicha asosiy, to'g'ridan-to'g'ri va subpudrat shartnomalari asosida bajarilgan, shuningdek, xo'jalik usulida bajarilgan va boshqa qurilish ishlari qiymati asosida shakllantiriladi.

27. Qurilish sohasida mehnat unumdorligi har yili IFUT-2, F seksiya bo'yicha hisoblanadi.

28. Respublika bo'yicha qurilishda mehnat unumdorligi ko'rsatkichi quyidagi formula, ya'ni joriy narxlardagi qurilish faoliyat turining yalpi qo'shilgan qiymati (YaQQ) hajmini sohada band bo'lgan aholi soniga nisbati orqali hisoblanadi:

$$MU_{Res} = \frac{YaQQ}{BA}$$

bu yerda,

MU_{Res} – respublika bo'yicha qurilishda mehnat unumdorligi (ming so'm / kishi);

$YaQQ$ – joriy narxlardagi qurilish faoliyat turi bo'yicha YaQQ hajmi (million so'm);

BA – qurilish sohasida band bo'lgan aholi soni (ming kishi).

Masalan, 2022-yilda respublika bo'yicha qurilish sohasida band bo'lgan 1 314,3 ming. kishi tomonidan joriy narxlarda 55 522,7 mlrd. so'mlik qurilish ishlari yalpi qo'shilgan qiymati (YaQQ) bo'lib, qurilish sohasida band bo'lgan bir nafar aholi tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmini topish uchun YaQQni sohada band bo'lganlar soniga bo'lamiz.

$MU_{Res} = 55\,522,7 \text{ mlrd. so'm} / 1\,314,3 \text{ ming. kishi} = 42,2 \text{ mln. so'm. kishi}$

Bunda, tarmoqda band bo'lgan bir nafar aholi tomonidan bajarilgan qo'shilgan qiymat hajmi 42,2 mln. so'mni tashkil qiladi.

29. Hududlar bo'yicha qurilish faoliyati turida mehnat unumdorligi ko'rsatkichi yuqoridagi formula, ya'ni joriy narxlardagi yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmini sohada band bo'lgan xodimlar soniga nisbati orqali hisoblanadi.

4-§. Mehnat unumdorligi indeksini hisoblash

30. Respublika va hududlar bo'yicha qurilish sohasida mehnat unumdorligi holatini o'rganish maqsadida mehnat unumdorligi indeksi hisoblanadi.

Mehnat unumdorligi indeksini hisoblash uchun respublika va hududlar kesimida qurilish sohasida band bo'lgan aholi soni indeksidan foydalaniladi hamda quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$I_{BA} = \frac{BA_t}{BA_{t-1}}$$

bu yerda,

I_{BA} – hisobot davrida o‘tgan yilning shu davriga nisbatan qurilish sohasida band bo‘lgan aholi soni indeksi (%);

BA_t – hisobot davrida qurilish sohasida band bo‘lgan aholi soni (ming kishi);

BA_{t-1} – o‘tgan yilning shu davrida qurilish sohasida band bo‘lgan aholi soni (ming kishi).

Masalan, 2022-yilda respublika bo‘yicha qurilish sohasida band bo‘lgan aholi soni indeksini aniqlash uchun 2022-yilda ushbu sohada band bo‘lganlarni (1 314,3 ming. kishi) 2021-yildagi mos ko‘rsatkichga (1 350,8 ming. kishi) nisbatini aniqlaymiz.

$$I_{VA} = 1\,314,3 \text{ ming. kishi} / 1\,350,8 \text{ ming. kishi} * 100 = 97,3 \%$$

Hisoblash yakunlariga ko‘ra, 2022-yilda qurilish sohasida band bo‘lgan aholi soni 2021-yildagi tarmoqda band bo‘lgan aholi soniga nisbatan 97,3 % ni tashkil qiladi.

31. Respublika bo‘yicha mehnat unumdorligi indeksi YaQQ hajmi indeksini qurilish sohasida band bo‘lgan aholi soni indeksiga nisbati orqali hisoblanadi:

$$I_{MU Res} = \frac{I_{YaQQ}}{I_{BA}}$$

bu yerda,

$I_{MU Res}$ – respublika bo‘yicha mehnat unumdorligi indeksi (%);

I_{YaQQ} – qurilish YaQQ hajmi indeksi (%);

I_{BA} – respublika bo‘yicha qurilish sohasida band bo‘lgan aholi soni indeksi (%).

Masalan, 2022-yilda respublika bo‘yicha qurilish sohasida mehnat unumdorligi indeksi ko‘rsatkichini aniqlash uchun 2022-yil qurilish YaQQ hajmi indeksi (o‘shish sur‘ati)ni (106,6 %) respublika bo‘yicha qurilish sohasida band bo‘lgan aholi soni indeksiga bo‘lamiz (97,3 %).

$$I_{MU Res} = 106,6 \% / 97,3 \% * 100 = 109,6 \%$$

Hisoblash natijalariga ko‘ra, 2021-yilga nisbatan 2022-yilda O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha qurilish faoliyat turida mehnat unumdorligining o‘shish sur‘ati 109,6 % ni tashkil etgan.

32. Hududlar bo‘yicha mehnat unumdorligi indeksi yuqoridagi formula asosida, YaQQ hajm indeksini hududlarda qurilish sohasida band bo‘lgan aholi soni indeksiga nisbati orqali hisoblanadi.

Hisob-kitoblar jarayonida respublika ko‘rsatkichlari o‘rniga hududlar ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi.

6-bob. Savdo sohasida mehnat unumdorligini hisoblashning usullari

33. Ushbu bobda (IFUT-2)ning savdo sohasiga tegishli G - seksiya “Ulgurji va chakana savdo; avtotransport vositalari va mototsikllarni ta’irlash” bo’yicha mehnat unumdorligi ko’rsatkichlarini hisoblash tartibi keltirilgan.

34. Savdo sohasida mehnat unumdorligi yalpi qo’shilgan qiymatning sohada band bo’lgan xodimlar soniga nisbati sifatida hisoblanadi.

Mehnat unumdorligi har yili IFUT-2 ning savdo sohasiga tegishli seksiyalar bo’yicha hisoblanadi.

35. Respublika bo’yicha savdo sohasiga tegishli seksiyalar bo’yicha mehnat unumdorligi ko’rsatkichi quyidagi formula, ya’ni joriy narxlardagi yalpi qo’shilgan qiymat (YaQQ) hajmini tegishli seksiya bo’yicha sohada band bo’lgan aholi soniga nisbati orqali hisoblanadi:

$$MU_{Res} = \frac{YaQQ}{BA}$$

bu yerda,

MU_{Res} – respublika bo’yicha savdo sohasiga tegishli seksiyalar bo’yicha mehnat unumdorligi (ming so’m / kishi);

$YaQQ$ – joriy narxlardagi savdo sohasiga tegishli seksiyalar bo’yicha YaQQ hajmi (mlrd. so’m);

BA – savdo sohasiga tegishli seksiyalar bo’yicha band bo’lgan aholi soni (ming kishi).

Masalan, 2022-yilda respublika bo’yicha G - seksiyasi bo’yicha band bo’lganlar 633,1 ming kishini, yalpi qo’shilgan qiymat hajmi 42 833,1 mlrd. so’mni tashkil qilgan.

$$MU_{Res} = 42\,833,1 \text{ mlrd. so'm} / 633,1 \text{ ming kishi} = 67,7 \text{ mln. so'm.}$$

Bu yerda, savdo faoliyatda band bo’lgan bir nafar aholiga to’g’ri keladigan savdo hajmi 67,7 mln. so’mni tashkil etadi.

5-§. Mehnat unumdorligi indeksini hisoblash

36. Mehnat unumdorligi indeksini hisoblash uchun savdo sohasida band bo’lgan aholi soni indeksi quyidagi formula bo’yicha hisoblanadi:

$$I_{BA} = \frac{BA_t}{BA_{t-1}}$$

bu yerda,

I_{BA} – hisobot davrida savdo sohasiga tegishli seksiyalar bo'yicha band bo'lgan aholi soni indeksi (%da);

VA_t – savdo sohasiga tegishli seksiyalar bo'yicha hisobot davrida band bo'lgan aholi soni (ming kishi);

VA_{t-1} – savdo sohasiga tegishli seksiyalar bo'yicha o'tgan yilning shu davrida band bo'lgan aholi soni (ming kishi).

Masalan, 2022-yilda respublika bo'yicha G seksiya bo'yicha band bo'lgan aholi soni indeksini aniqlash uchun 2022-yilda ushbu sohada band bo'lganlarni (633,1 ming kishi) 2021-yildagi mos ko'rsatkichga (654,2 ming kishi) nisbatini aniqlaymiz.

$$I_{VA} = 633,1 \text{ ming. kishi} / 654,2 \text{ ming kishi} * 100 = 96,8 \text{ \%}.$$

Hisob-kitoblarga ko'ra, 2022-yilda G seksiyada band bo'lgan aholi soni 2021-yilga nisbatan 3,2 \% ga kamaygan.

37. Respublika bo'yicha mehnat unumdorligi indeksi YaQQ hajmi indeksini savdo sohasiga tegishli seksiyalar bo'yicha band bo'lgan aholi soni indeksiga nisbati orqali hisoblanadi:

$$I_{MU \text{ Res}} = \frac{YaQQ}{I_{BA}}$$

bu yerda,

$I_{MU \text{ Res}}$ – respublika bo'yicha mehnat unumdorligi indeksi (%);

$YaQQ$ – savdo sohasiga tegishli seksiyalar bo'yicha YaQQ hajm indeksi (%);

I_{BA} – respublika bo'yicha savdo sohasiga tegishli seksiyalar bo'yicha band bo'lgan aholi soni indeksi (%).

Masalan, 2022-yilda respublika bo'yicha mehnat unumdorligi ko'rsatkichini aniqlash uchun 2022-yil G seksiya bo'yicha YaQQ hajm indeksi (o'sish sur'ati)ni (111,5 \%) respublika bo'yicha G seksiya bo'yicha band bo'lgan aholi soni indeksiga bo'lamiz (96,8 \%).

$$I_{MU \text{ Res}} = 111,5 \% / 96,8 \% * 100 = 115,2 \text{ \%}.$$

Bunda, 2021-yilga nisbatan 2022-yilda respublika bo'yicha savdo sohasida mehnat unumdorligining o'sish sur'ati 115,2 \% ni tashkil etgan.

7-bob. Xizmatlar sohasida mehnat unumdorligini hisoblashning usullari

38. Ushbu bobda (IFUT-2)ning xizmatlar sohasiga tegishli (H "Tashish va saqlash"dan S "Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish" gacha) seksiyalar bo'yicha mehnat unumdorligi ko'rsatkichlarini hisoblash tartibi keltirilgan.

39. Xizmatlar sohasida mehnat unumdorligi yalpi qo'shilgan qiymatning sohada band bo'lgan xodimlar soniga nisbati bo'lib, mehnat unumdorligi ko'rsatkichi har yili IFUT-2 ning xizmat ko'rsatish sohasiga tegishli (H "Tashish va saqlash"dan S "Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish" gacha) seksiyalar bo'yicha hisoblanadi.

Bunda, quyidagi formula, ya'ni joriy narxlardagi yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmini tegishli seksiya bo'yicha sohada band bo'lgan aholi soniga nisbati orqali hisoblanadi:

$$MU_{Res} = \frac{YaQQ}{BA}$$

bu yerda,

MU_{Res} – respublika bo'yicha xizmatlar sohasiga tegishli seksiyalar bo'yicha mehnat unumdorligi (ming so'm / kishi);

$YaQQ$ – joriy narxlardagi xizmatlar sohasiga tegishli seksiyalar bo'yicha YaQQ hajmi (mlrd. so'm);

BA – xizmatlar sohasiga tegishli seksiyalar bo'yicha band bo'lgan aholi soni (ming kishi).

Masalan, 2022-yilda respublika bo'yicha "Tashish va saqlash" seksiyasi bo'yicha band bo'lganlar 633,1 ming kishiga, "Tashish va saqlash" sohasida yalpi qo'shilgan qiymat hajmi 42 833,1 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ushbu faoliyatda band bo'lgan bir nafar aholi tomonidan yaratilgan xizmatlar sohasida hajmini topish uchun jami yalpi qo'shilgan qiymat hajmini tarmoqda band bo'lganlar soniga bo'lamiz.

$$MU_{Res} = 42\,833,1 \text{ mlrd. so'm} / 633,1 \text{ ming kishi} = 67,7 \text{ mln. so'm.}$$

Hisob-kitoblarga ko'ra, har bir xodimga xizmat ko'rsatish hajmi 67,7 mln. so'mni tashkil etadi.

6-§. Mehnat unumdorligi indeksini hisoblash

40. Mehnat unumdorligi indeksi respublikada xizmat ko'rsatish sohasiga tegishli seksiyalar (H "Tashish va saqlash"dan S "Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish" gacha) bo'yicha mehnat unumdorligi holatini o'rganish uchun hisoblanadi. Mehnat unumdorligi indeksini hisoblash uchun iqtisodiyotda band bo'lganlar soni indeksi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$I_{BA} = \frac{BA_t}{BA_{t-1}}$$

bu yerda,

I_{BA} – hisobot davrida xizmat ko‘rsatish sohasiga tegishli seksiyalar bo‘yicha iqtisodiyotda band bo‘lganlar sonining o‘tgan yilning shu davriga nisbatan ko‘rsatkichi (%da);

BA_t – xizmat ko‘rsatish sohasiga tegishli seksiyalar bo‘yicha hisobot davrida band bo‘lgan aholi soni (ming kishi);

BA_{t-1} – xizmat ko‘rsatish sohasiga tegishli seksiyalar bo‘yicha o‘tgan yilning shu davrida band bo‘lgan aholi soni (ming kishi).

Masalan, 2022-yilda respublika bo‘yicha “Tashish va saqlash” seksiya bo‘yicha band bo‘lgan aholi soni indeksini aniqlash uchun 2022-yilda ushbu sohada band bo‘lganlarni (633,1 ming kishi) 2021-yildagi mos ko‘rsatkichga (654,2 ming kishi) nisbatini aniqlaymiz.

$$I_{VA} = 633,1 \text{ ming. kishi} / 654,2 \text{ ming kishi} * 100 = 96,8 \%$$

Demak, hisob-kitoblarga ko‘ra, 2022 -yilda “Tashish va saqlash” sektorida band bo‘lgan aholi soni 2021-yilga nisbatan 3,2 %ga kamaygan.

41. Respublika bo‘yicha mehnat unumdorligi indeksi YaQQ hajmi indeksini xizmat ko‘rsatish sohasiga tegishli seksiyalar bo‘yicha band bo‘lgan aholi soni indeksiga nisbati orqali hisoblanadi:

$$I_{MU Res} = \frac{I_{YaQQ}}{I_{BA}}$$

bu yerda,

$I_{MU Res}$ – respublika bo‘yicha mehnat unumdorligi indeksi (%);

I_{YaQQ} – xizmat ko‘rsatish sohasiga tegishli seksiyalar bo‘yicha YaQQ hajm indeksi (%);

I_{BA} – respublika bo‘yicha xizmat ko‘rsatish sohasiga tegishli seksiyalar bo‘yicha band bo‘lgan aholi soni indeksi (%).

Masalan, 2022-yilda respublika bo‘yicha “Tashish va saqlash” seksiya bo‘yicha mehnat unumdorligi ko‘rsatkichini aniqlash uchun 2022-yil “Tashish va saqlash” sektori bo‘yicha hajm indeksi (o‘shish sur‘ati)ni (111,5 %) respublika bo‘yicha “Tashish va saqlash” seksiya bo‘yicha band bo‘lgan aholi soni indeksiga bo‘lamiz (96,8 %).

$$I_{MU Res} = 111,5 \% / 96,8 \% * 100 = 115,2 \%$$

Hisoblash natijalariga ko‘ra, 2021-yilga nisbatan 2022-yilda respublika bo‘yicha “Tashish va saqlash” seksiyasi bo‘yicha mehnat unumdorligining o‘shish sur‘ati 115,2 % ni tashkil etgan.

8-bob. Yakuniy qoidalar

42. Mehnat unumdorligi hisobot davrida iqtisodiyotda mehnat salohiyatidan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichdir. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun mehnat unumdorligining o'sishi muhimligini hisobga olgan holda, ushbu ko'rsatkichni iqtisodiy tahlil qilishga katta ahamiyat beriladi. Tahlillar aniq bir davrda va qator yillar dinamikasida ko'rsatkichlarning o'zgarishini hamda ushbu o'zgarishlarga ta'sir qiluvchi turli omillarni o'rganishni taqozo etadi.

43. Jami ish bilan band bo'lganlarning ishlagan umumiy vaqtdan kelib chiqqan holda mehnat unumdorligi ko'rsatkichini hisoblash iqtisodiyotda ish vaqtdan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish imkonini beradi.

44. Mazkur uslubiy nizom asosida hisoblanadigan mehnat unumdorligi ko'rsatkichlaridan statistika maqsadlarida foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Система национальных счетов – 2008, Организация Объединенных Наций, Европейская комиссия, Организация экономического сотрудничества и развития, Международный валютный фонд и Всемирный банк, 2009 г.
2. Руководство ОЭСР по измерению роста производительности на уровне отрасли и на агрегированном уровне, ОЭСР, Париж, март 2001.
3. “Yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish usulida hisoblash bo'yicha Uslubiy nizom”, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2021-yil 23-noyabrdagi 45-sonli qarori bilan tasdiqlangan.
4. Энциклопедия статистических терминов, Росстат, 2011 г.